

IRODA JARAYONLARI VA SHAXSNING IRODAVIY SOHASI: IRODANING SHAKLLANISHI QAROR QABUL QILISH, SABR-TOQAT, QAT'IYAT KABI SIFATLAR

Xalbayeva Gulnoza Arshiddinovna

**Kattaqo'rg'on Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası v/b dotsenti, PhD
Odilova Munisabonu**

**Kattaqo'rg'on Davlat Pedagogika Instituti Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20226125>**

ANNOTATSIYA

Ushbu ishda shaxs psixologiyasining fundamental yo'nalishlaridan biri bo'lgan irodaviy soha va uning shakllanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqolada iroda tushunchasining mohiyati — insonning o'z xulq-atvori va faoliyatini ongli ravishda boshqarishi hamda ichki-tashqi to'siqlarni yengib o'tish qobiliyati sifatida yoritilgan. Tadqiqotning asosiy qismida irodaviy jarayonning muhim bosqichi bo'lgan qaror qabul qilish mexanizmi, motivlar kurashi va maqsad sari yo'naltirilgan harakatlarni tanlash psixologiyasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, shaxsning irodaviy sifatleri bo'lmish sabr-toqat va qat'iyat fazilatlarining shakllanish omillari bayon etilgan. O'qishda, ishda irodani tarbiyalashda o'z-o'zini nazorat qilish, intizom va ijtimoiy muhitning ta'siri haqida xulosalar berilgan. Talabalarda irodani tarbiyalashda o'z-o'zini nazorat qilish, intizom va o'quv muhiti ta'sirining muhimligi xulosa qilingan. Iroda psixologiya yo'nalishi talabalari, o'qituvchilar, murabbiylar hamda o'z irodaviy sifatlarini mustahkamlashga intiluvchi har qanday shaxs uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: iroda, irodaviy harakatlar, irodaning nerv-fiziologik asoslari, irodaviy akt, maqsadni anglash, motivlar kurashi, irodaviy sifatlar, iroda kuchi, irodaning axloqiyliigi, irodaning mustaqilligi, sabot-matonat, irodasizlik, intizomlilik.

KIRISH

Iroda (arabcha *إرادة*) — qasd, niyat, istak).

Iroda — odamning o'z faoliyati va psixik jarayonlarini o'zi boshqarishda namoyon bo'ladigan qobiliyati. Inson irodaviy harakatini amalga oshirarkan, o'ziga xukmron ehtiyoj va xohishlariga qarshi turadi: iroda uchun „men xohlayman“ degan kechinma emas, balki „kerak“, „bajarishim shart“ degan kechinma xosdir.

Inson faoliyatining barcha turlari va har qanday mehnat kishidan mustahkam irodani talab qiladi. Iroda mehnatda paydo bo'ladi va toblanadi. Irodaning ongdagi faoliyati harakat maqsadini belgilashda, maqsadga erishish vositalari va yo'l-yo'riqlarini oldindan aniqlab, ma'lum qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo'ladi. Odamda iroda ning qay darajada ekanligi maqsadni qanday ro'yobga chiqarishida ko'rinadi. Irodaviy harakat jarayonlarida kishi ichki va tashqi to'siqlarga duch keladi. Ichki to'siqlar kishining o'ziga, uning ichki mayllariga xos holat. Kishining ichki mayllarini yenga olish, o'zini boshqarish va o'z ustidan hukmronlik qila bilish layoqati *ichki iroda* deb ataladi. Tashqi to'siqlar tevarak-atrofdagi voqelikda uchraydi. Kishining ana shunday tashqi to'siqlarni yenga olish layoqati *tashqi iroda* deb ataladi. Irodaviy faoliyatda tashqi to'siqlarni yengish (tashqi iroda) ichki to'siqlar (ichki iroda) ni yengish bilan uzviy bog'liq.

Irodaning muhim sifatleri: o'zini tuta bilish, dadillik, qat'iylik, chidam va toqat, prinsipiiallik, mustaqillik va boshqalar. Iroda kuchi shu sifatleraning qay darajada namoyon bo'lishiga qarab

belgilanadi. Kishi yuksak g'oyalarga asoslangan ongli qat'iyat va sabot bilan o'z harakati yo'lidagi to'siqlarni yengar ekan, u kuchli iroda egasi hisoblanadi. Iroda kishining xarakteri bilan uzviy bog'liq, uning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Sabr-toqat – bu bugungi kunda har bir qadamda duch keladigan tezkor axborot oqimi, tezkor javoblar talabi, kutilishlar yuqori bo'lgan vaziyatlar. Masalan, internet tezligi, messenjdagi javob, loyiha natijalari hamda uzoq muddatli maqsadlarga erishish yo'lidagi bosimlarga qaramay, o'z hissiy holatini barqaror saqlay olish, shoshilmaslik, diqqatni jamlab harakat qilish va kutilgan natija uchun vaqt berish qobiliyatidir. Bu onlayn munozaralarda bahslarga kirishmasdan vaziyatni bosiqlik bilan tahlil qilish, ijtimoiy tarmoqlardagi "tezkor yutuq" hikoyalari uchmasdan o'z yo'lida qadam-baqadam oldinga siljishdir.

ASOSIY QISM

Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo'ladi. Odam o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi. Ana shuning uchun har qanday qiyinchiliklarni yengib bo'lsa ham maqsadini amalga oshirishga intila boradi. Masalan, odam biror imorat solayotgan paytda oxirgi natija qanday bo'lib chiqishini juda yaxshi tasavvur etadi va shuning uchun qanday qiyinchiliklar bo'lsa ham yengib ishni davom ettira beradi. Yoki talaba universitetning birinchi kursiga kirganda qanday mutaxassis bo'lib chiqishini yaxshi biladi va shuning uchun barcha qiyinchiliklarga chidab o'qishni davom ettira beradi.

Ko'p hollarda iroda vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'z-o'zini engish hamdir. Bu ayniqsa, muvozanatsiz, hissiy, qo'zg'aluvchan, sust kishilarga xos bo'lib, o'zlarining tabiiy karakterologik xususiyatlari bilan kurashishga to'g'ri keladi. Hech bir muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi. Inson kuchli irodasiz katta muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Odamzod boshqa tirik mavjudotlardan o'zining ongi va aqli bilangina emas, balki irodasining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

Irodaviy ya'ni ixtiyoriy harakatlarning nerv - fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar har doim to'la ongli harakatlar bo'lgani uchun bosh miya po'stlog'ida yuzaga keladigan optimal qo'zg'alish manbalari bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu haqda akademik I.P. Pavlov shunday deb yozgan edi: "Mening tasavvurimcha, ong ayni shu chog'da xuddi shu sharoitning o'zida ma'lum darajada optimal (har holda o'rtacha bo'lsa kerak) qo'zg'alishga ega bo'lgan bosh miya katta yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat".

Irodaviy harakatlar bosqichlari

- >Maqsad va unga erishishga intilish
- >Maqsadga erishish imkoniyatlarini topish
- >Motivlarni paydo bo'lishi va imkoniyatlarni mustahkamlash.
- >Motivlar kurashi va tanlash.
- >Biror fikrni qabul qilish
- >Qabul qilingan qarorni amalga oshirish

Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo'ladi. Odam o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi. Ana shuning uchun har qanday qiyinchiliklarni yengib bo'lsa ham maqsadini amalga oshirishga intila boradi.

NAZARIYALAR

U.Djeymsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qorishtirib bo'lmaydigan birlamchi xususiyatga egadirlar. Har qanday g'oya dastlab dinamik tendensiyaga

ega bo'lganligi tufayli irodaviy aktning vazifasi diqqat yordami bilan bir g'oyaning boshqasi ustidan ustuvorligini ta'minlashdan iboratdir.

V.I.Selivanov irodaning psixologik jabhalarini yoritayotib, u shunday g'oyani ilgari suradi, insonning ongini jarayonlar, holatlar, xislatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida tasavvur qilish mumkin. Shaxsning u yoki bu ongli harakati o'zining tuzilishiga ko'ra bir davrning o'zida ham aqliy, ham hissiy, ham irodaviy hisoblanadi.

P.M.Yakobson bo'lsa, irodaning muhim sifatleri sifatida mustaqillik, qat'iylik, tirishqoqlik o'zini uddalashni ko'rsatadi. Insonda namoyon bo'ladigan irodaviy sifatlar sarasiga A.I.Shcherbakov quyidagilarni kiritadi: sobitqadamlik va tashabbuskorlik, tashkillashganlik va intizomlilik, urinchoqlik va qat'iyatlilik, chidamlilik va o'zini uddalashlik, botirlik va jasoratlilik.

S. L. Rubinshteyn irodani falsafiy va psixologik ma'noda tasvirlaydi: "ongli maqsad va unga turtki sifatida munosabat bilan tartibga solinadigan harakatlar irodaviy harakatlardir". Bunday ta'rif Iroda tushunchasini istak tushunchasidan, motivatsiya tushunchasidan aniq ajratishga imkon beradi. Ushbu ta'rifda maqsadga munosabat, uni anglash shaklida bir lahzali vaziyatdan uzilish mavjud. Maqsad va maqsadning nisbati ham muhimdir. Maqsad va motiv hech bo'lmaganda subyektning ongida bir – biriga to'g'ri keladigan bo'lsa, subyekt o'z faoliyatini to'liq boshqaradi, u o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi-faoliyatda Iroda mavjud.

XULOSA

Eng umumiy ma'noda, Iroda psixologiyada insonning ongli ravishda o'zini o'zi boshqarish qobiliyati sifatida qaraladi. Iroda harakatni amalga oshirish uchun ham, undan voz kechish uchun ham zarurdir. Irodaning asosiy elementi ongli ravishda qaror qabul qilishdir. Iroda ekzistensial psixologiyada erkinlik tushunchasiga yaqin, chunki bunday ongli qaror qabul qilgan kishi bir lahzalik vaziyatdan chiqib ketishi yoki o'ziga, qadriyatlariga bo'lgan munosabatiga murojaat qilishi yoki tasavvur, mantiqqa murojaat qilishi va taxmin qilingan harakatning oqibatlarini modellashtirishi kerak.

Sabot-matonatli chidamli va toqatli kishilar maqsadga yetishishda va qiyinchiliklarga qarshi kurash jismoniy va ruhiy azoblarga hamda boshqa mashaqqatlarga chiday oladilar. Ular har qanday vaziyatda o'zlarini tuta oladilar, jasurlik, mardlik, botirlik, qat'iyat ko'rsata oladilar .

Irodali shaxs hayotda o'z yo'lini topadi, qiyinchiliklarni yengadi va o'z potentsialini to'liq ro'yobga chiqaradi. Shaxsning irodaviy sohasi uning dunyoda o'z o'rnini topishida, muvaffaqiyatga erishishida va baxtli hayot kechirishida eng muhim omillardan biridir. Shuning uchun har bir inson o'z irodasini muntazam ravishda tarbiyalashi va mustahkamlashi zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. F.I.XAYDAROV N.I.XALILOVA UMUMIY PSIXOLOGIYA (darslik) Toshkent -2009
2. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T.: 2004.
3. G'oziev E.G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y
4. Volya / Stolyarov A. A., Leontev D. A. // Velikiy knyaz – Vosxodyashiy uz el orbiti. – M. : Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya, 2006. – S. 697–698. – (Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya : [v 35 t.] / gl. red. Yu. S. Osipov ; 2004—2017, t. 5). – ISBN 5-85270-334-6.
5. Ivannikov, V. A. Psixologicheskie mexanizmi volevoy regulyatsii. – SPb. : Piter, 2006. – 208 s.
6. Makgonigal, K. Sila voli : kak razvit i ukrepi = The Willpower Instinct : [per. s]. – M. : Mann, Ivanov i Ferber, 2012 . – 312 s. – BBK 28.70 . – UDK 612.3(G). – ISBN 978-5-91657-382-4.

7. “Iroda”, *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi* (I-harfi). Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.”

